
OGOHLIK VA HUSHYORLIK – FAROVON HAYOT GAROVI

Qo'shtepa tumani markazida joylashgan 15-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish markazi hamda tuman hokimligi tashabbusi bilan tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, ta'lim muassasalari rahbarlari hamda tibbiyot birlashmasi xodimlari ishtirokida targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda so'z olgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish markazi eksperti Saodatxon Jumanova, voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha viloyat Idoralararo komissiyasi mas'ul kotibi Qobuljon Hasanovlar respublikamizda aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida narkobiznes va narkomaniya illatlarining tomir otishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida joylarda jamoat nazoratini yanada kuchaytirish, targ'ibot ishlarini ko'paytirish va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar xususida to'xtalib o'tdilar.



Ta'kidlanganidek, boshqa davlatlarga turli yo'llar bilan kirib borib, ko'plab oilalarning sog'ligiga xavf solayotgan ushbu illatga qarshi barchamiz birdek kurashishimiz zarur.



2019-11-28 11:21:52